

BARQAROR TIL BIRLIKLARIDA LINGVOMADANIY KODLARNING IFODALANISHI: TAJRIBA-SINOV ASOSIDA

Valijonova Mag'ruha

Qo'qon DU 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20047142>

Annotatsiya: Mazkur tezisda barqaror til birliklarida lingvomadaniy kodlarning ifodalanishi masalasi magistrlik dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan ilmiy amaliyot (stajirovka) natijalari asosida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida frazeologik birliklar, maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinib, ularning milliy tafakkur, qadriyatlar va madaniy an'analarni aks ettirishdagi o'рни asoslab beriladi. Shuningdek, barqaror birliklarni lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: barqaror til birliklari, lingvomadaniyat, lingvomadaniy kod, frazeologizm, maqol va matallar, milliy madaniyat, lingvistik tahlil.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganish zarurati ortib borayotgani bilan belgilanadi. Xususan, barqaror til birliklari — frazeologizmlar, maqol va matallarda mujassamlashgan lingvomadaniy axborot yetarlicha tizimli tahlil qilinmayapti, ular ko'proq leksik-semantik jihatdan o'rganilmoqda.

Shuningdek, ta'lim jarayonida ushbu birliklarning lingvomadaniy xususiyatlariga yetarli e'tibor qaratilmasligi ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga to'sqinlik qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — barqaror til birliklarida lingvomadaniy kodlarning ifodalanish xususiyatlarini aniqlash va ularni ilmiy-amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Shu maqsadda stajirovka jarayonida barqaror birliklarni tanlash, ularni lingvomadaniy tahlil qilish hamda natijalarni tizimlashtirish vazifalari belgilandi.

Ilmiy amaliyot (stajirovka) jarayonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bosqichma-bosqich tashkil etildi va tizimli ravishda olib borildi. Dastlab ilmiy rahbar bilan hamkorlikda tajriba-sinov ishlari dasturi ishlab chiqilib, unda tadqiqot doirasida bajariladigan ishlarning aniq yo'nalishlari va tahlil mezonlari belgilab olindi.

Keyingi bosqichda tadqiqot uchun zarur bo'lgan materiallar bazasi shakllantirildi. Xususan, o'zbek tilidagi frazeologik birliklar, maqol va matallar tanlab olinib, ular mazmuniga ko'ra guruhlarga ajratildi. Tanlangan birliklar ustida ishlash jarayonida ularning semantik tuzilishi, obrazlilik darajasi hamda milliy-madaniy komponentlari izchil tahlil qilindi.

Amaliyot davomida o'quv-uslubiy manbalar bilan ishlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishiga oid darsliklar, o'quv-uslubiy majmualar va me'yoriy hujjatlar o'rganilib, ularda barqaror til birliklarining berilishi hamda izohlanish xususiyatlari tahlil qilindi. Bu jarayon mavjud o'quv materiallarining mazmunini baholash va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, stajirovka doirasida pedagogik faoliyat bilan bog'liq ishlar ham bajarildi. Jumladan, talabalar uchun dars ishlanmalari tayyorlandi, kurs ishlari tahlil qilindi hamda ularga taqrizlar yozildi. Ushbu jarayonlar tadqiqot mavzusini amaliy jihatdan chuqurroq anglash va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini sinab ko'rishga xizmat qildi.

Amaliyotning yakuniy bosqichlarida to'plangan materiallar umumlashtirilib, ularning asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. Olingan natijalar magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobini yozishda asosiy manba sifatida qo'llanildi va nazariy qarashlar amaliy dalillar bilan mustahkamlandi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida barqaror til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari aniqlashtirildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, frazeologizmlar, maqol va matallarda milliy tafakkur, qadriyatlar hamda ijtimoiy tajriba obraz va semantik qatlamlar orqali ifodalanadi. Lingvomadaniy kodlar esa bevosita, ko'chma va assotsiativ ma'nolar orqali namoyon bo'ladi.

Barqaror birliklarni mazmuniga ko'ra guruhlash va lingvomadaniy tahlil qilish ularning ichki tuzilishi hamda funksional imkoniyatlarini ochib berdi. Natijalar ushbu birliklarning madaniy axborotni saqlovchi muhim vosita ekanligini tasdiqladi. Shuningdek, o'quv materiallari tahlili barqaror birliklarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi. Bu esa til ta'limi samaradorligini oshirish va o'quvchilarning madaniy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, barqaror til birliklarida lingvomadaniy kodlarni o'rganish til va madaniyat bog'liqligini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratadi.

